Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

ONALIK TAJRIBASINING XORIJIY ANTROPOLOGIYA VA ETNOLOGIYADA O‘RGANILISHI: TARIXSHUNOSLIK VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Mamadalihojiyeva Shohsanam Sheraliyevna
https://doi.org/10.5281/zenodo.22982374

Annotatsiya. Maqolada mustaqillik davrida Toshkent viloyatida onalik tajribasining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi antropologik va etnologik jihatdan tahlil qilinadi. Mavzuning xorijiy tadqiqotlardagi o‘rganilishi hamda asosiy nazariy-metodologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda tarixiy-antropologik, etnografik, qiyosiy va gender yondashuvlardan foydalaniladi. An’anaviy onalik qarashlari, zamonaviy amaliyotlar va ularning o‘zaro transformatsiyasi asosiy tadqiqot obyekti sifatida belgilanadi.
Kalit so‘zlar: onalik tajribasi, antropologiya, etnologiya, transformatsiya, gender, Toshkent viloyati.

Аннотация. В статье анализируется трансформация материнского опыта в Ташкентской области в период независимости с позиций антропологии и этнологии. Рассматриваются зарубежная историография проблемы и основные теоретико-методологические подходы. Используются историко-антропологический, этнографический, сравнительный и гендерный подходы. Особое внимание уделяется взаимодействию традиционных представлений о материнстве и современных практик.
Ключевые слова: материнский опыт, антропология, этнология, трансформация, гендер, Ташкентская область.

Abstract. This article examines the transformation of maternal experience in the Tashkent region during the period of independence from anthropological and ethnological perspectives. It reviews the foreign historiography of motherhood and major theoretical and methodological approaches. The study employs historical-anthropological, ethnographic, comparative, and gender approaches. Particular attention is paid to the interaction between traditional concepts of motherhood and contemporary practices.
Keywords: maternal experience, anthropology, ethnology, transformation, gender, Tashkent region.

KIRISH. Onalik insoniyat jamiyatining biologik davomiyligini ta’minlovchi universal hodisalardan biri bo‘lsa-da, onalik tajribasining mazmuni, shakllari va ijtimoiy vazifalari barcha jamiyatlarda bir xil emas. Ona bo‘lish biologik jarayon sifatida umumiy xususiyatga ega bo‘lishi mumkin, biroq bolaning tug‘ilishi, parvarishi, emizilishi, tarbiyalanishi, qarindoshlar o‘rtasida parvarish majburiyatlarining taqsimlanishi, ayolning mehnat faoliyati, ona va bola o‘rtasidagi munosabatlar hamda “yaxshi ona” haqidagi tasavvurlar muayyan tarixiy va madaniy muhitda shakllanadi. Shu sababli zamonaviy antropologiya va etnologiyada onalik biologik holat sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar, madaniy me’yorlar va kundalik amaliyotlar orqali shakllanuvchi tajriba sifatida qarala boshladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLAR SHARHI. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-antropologik, etnologik, qiyosiy va gender yondashuvlar tashkil etadi. Onalik biologik holat emas, balki muayyan tarixiy-madaniy sharoitda shakllanuvchi ijtimoiy tajriba va kundalik amaliyot sifatida talqin qilinadi. Mavzuning xorijiy tadqiqotlarda o‘rganilishida A. Oakley [1], N. Scheper-Hughes [2; 3], E. N. Glenn, G. Chang va L. R. Forcey [4], F. Ginsburg va R. Rapp [5], S. Kawash [6], S. Roche [7], E. Griffin [8], E. Demintseva [9] hamda A. Muggeridge va R. Davidson [10] asarlari muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Onalikni aynan tajriba nuqtayi nazaridan o‘rganishning ilmiy shakllanishida Ann Oakleyning tadqiqotlari muhim burilish yasadi. Uning 1970-yillarda boshlangan Becoming a Mother tadqiqoti ayollarning birinchi marta ona bo‘lish jarayonining ijtimoiy, psixologik va emotsional jihatlarini empirik o‘rganishga qaratilgan edi [1]. Keyinchalik ushbu tadqiqotning metodologik ahamiyati alohida qayta baholanib, Oakley boshchiligidagi dastlabki loyiha onalikni ijtimoiy institut, motheringni esa ijtimoiy amaliyot sifatida ilmiy tadqiqotga olib kirgan muhim ishlardan biri sifatida tavsiflandi.

Oakleyning dastlabki tadqiqotida Londonda istiqomat qiluvchi 55 nafar birinchi marta ona bo‘layotgan ayol kuzatilgan. Tadqiqot homiladorlikning dastlabki davridan boshlab bola tug‘ilgandan keyingi besh oygacha davom etgan va ayollarning ona bo‘lish jarayonini qanday boshdan kechirishi masalasiga qaratilgan edi. Bu jihat tadqiqotning o‘sha davr uchun metodologik yangiligini ko‘rsatadi: tadqiqotchi onalikni tayyor va o‘zgarmas ijtimoiy rol sifatida emas, balki vaqt davomida shakllanadigan jarayon sifatida kuzatgan.

Shu nuqtada tadqiqotning asosiy ilmiy muammosi yuzaga keladi: ayolning ona bo‘lishi bilan uning onalik tajribasi bir xil hodisami? Antropologik nuqtayi nazardan bu savolga ijobiy javob berish mumkin emas. Chunki ona maqomiga ega bo‘lish biologik va huquqiy fakt bo‘lishi mumkin, ammo onalikni amalda bajarish — bolani parvarish qilish, tarbiyalash, ovqatlantirish, himoya qilish, hissiy qo‘llab-quvvatlash va oiladagi boshqa a’zolar bilan vazifalarni taqsimlash — muayyan madaniyat va ijtimoiy tuzilma bilan belgilanadi. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda motherhood va mothering tushunchalarining farqlanishi muhim nazariy qadamga aylandi.

Oakley tadqiqotining keyingi tarixini o‘rgangan Faircloth, Oakley, Hague va Wiggins 2026-yilda ushbu loyihaning 50 yillik rivojlanishini tahlil qilib, uning asosiy savolini “zamonaviy Britaniyada ayollar qanday qilib ona bo‘lish tajribasini boshdan kechiradi?” tarzida shakllantirilganini ko‘rsatadi. Tadqiqotning keyingi bosqichlarida dastlabki ma’lumotlarni qayta tahlil qilish, original ishtirokchilar bilan uzoq muddatli suhbatlar, ularning qizlari va nabiralari bilan intervyular hamda turli davrlardagi yangi avlod onalarini takroriy tadqiq qilish usullaridan foydalanilgan.

XX asr oxiriga kelib onalik tadqiqotlarining markazi individual “ona obrazi”dan kengroq bo‘lgan ijtimoiy va madaniy amaliyotlar tizimiga siljidi. Samira Kawash 2011-yilda motherhood studies bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtirar ekan, mazkur ilmiy sohaning turli fanlar va nazariy yo‘nalishlarga tarqalib ketganini, biroq umumiy tendensiya sifatida onalik tajribasini yagona va o‘zgarmas biologik mohiyatga keltirib chiqarishdan voz kechilganini ta’kidlaydi [6].

Bu metodologik o‘zgarishning mohiyati shundan iboratki, tadqiqotchi endilikda:

“Ona qanday bo‘lishi kerak?”

degan normativ savol bilan cheklanmaydi, balki:

“Turli tarixiy va madaniy sharoitlarda ayollar onalikni qanday boshdan kechirgan, qanday amaliyotlar orqali bajargan va bu tajriba qanday ijtimoiy omillar ta’sirida o‘zgargan?” degan savolni qo‘yadi.

Aynan shu savol onalikni tarixiy antropologiya va etnologiyaning mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Zamonaviy tarixshunoslikda bu yondashuv yanada kuchaymoqda. 2026-yilda Anna Muggeridge va Ruth Davidson zamonaviy Britaniya tarixidagi onalik tadqiqotlarini umumlashtirib, tarixshunoslikning maternalism, maternity policy, motherhood and activism hamda experiential histories of motherhood kabi bosqichlar orqali rivojlanganini ko‘rsatdilar. Ularning ta’kidlashicha, onalik tarixiy jarayonlardan tashqarida mavjud bo‘lgan o‘zgarmas identitet emas; aksincha, u muayyan tarixiy vaziyatlarda shakllantiriladi, muhokama qilinadi, bahsga tortiladi va amalda bajariladi.

Shunday qilib, xorijiy antropologik va tarixiy tadqiqotlar rivojida onalikni tushunishning “biologik holat”dan “ijtimoiy institut”ga, undan “kundalik amaliyot” va nihoyat “tarixiy tajriba”ga tomon kengayishi kuzatiladi. Ushbu metodologik evolyutsiya O‘zbekiston sharoitida, xususan mustaqillik davrida Toshkent viloyatidagi onalik tajribasining o‘zgarishini o‘rganish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Onalik tajribasini antropologik jihatdan o‘rganishda muhim burilishlardan biri amerikalik antropolog Nancy Scheper-Hughesning Braziliyaning shimoli-sharqidagi kambag‘al aholi yashaydigan hududlarda olib borgan tadqiqotlari bilan bog‘liq. Tadqiqotchining 1985-yilda “Ethos” jurnalida e’lon qilingan “Culture, Scarcity, and Maternal Thinking: Maternal Detachment and Infant Survival in a Brazilian Shantytown” maqolasi onalik hissiyotlari va amaliyotlarini iqtisodiy sharoitdan ajratib o‘rganish mumkin emasligini ko‘rsatadigan muhim antropologik tadqiqotlardan biridir [2]. Mazkur maqola *Ethos* jurnalining 13-jildi, 4-sonida, 291–317-betlarda nashr etilgan.

Scheper-Hughesning asosiy ilmiy muammosi shundan iborat ediki, G‘arb jamiyatlarida tabiiy va universal deb qabul qilinadigan “ona mehri”, “onalik bog‘lanishi” va bolaning hayotini har qanday sharoitda saqlab qolishga qaratilgan maternal xatti-harakatlar boshqa ijtimoiy-madaniy muhitlarda aynan shu shaklda namoyon bo‘ladimi? Antropolog bu savolni Braziliyaning shimoli-sharqidagi favela sharoitida, ayniqsa onalar va chaqaloqlar hayoti misolida ko‘rib chiqadi [2].

Tadqiqotning antropologik ahamiyati aynan shundaki, muallif onalikni biologik instinkt sifatida emas, balki muayyan tarixiy, iqtisodiy va madaniy sharoitda shakllanadigan ijtimoiy tajriba sifatida tahlil qiladi. Ya’ni, bolaning tug‘ilishi avtomatik ravishda yagona va o‘zgarmas “onalik modeli”ni vujudga keltirmaydi. Onaning bolaga munosabati, mehrni namoyon etish shakllari, parvarish usullari va hatto bolaning hayotga qanchalik “investitsiya” qilinishi jamiyatdagi moddiy imkoniyatlar va yashash sharoitlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi mumkin [2].

Bu yondashuv onalik tajribasini tadqiq etishda muhim metodologik masalani yuzaga chiqaradi: ona xatti-harakatini faqat individual psixologiya orqali tushuntirish yetarlimi yoki uning ortida turgan ijtimoiy tuzilmani ham tahlil qilish kerakmi? Scheper-Hughes ikkinchi yondashuvni ilgari suradi. Uning tadqiqotida qashshoqlik shunchaki tashqi iqtisodiy omil emas, balki onalarning kundalik qarorlari, hissiyotlari va bolalarni parvarish qilish strategiyalariga ta’sir qiluvchi ijtimoiy muhit sifatida qaraladi [2].

Muallifning keyingi, 1992-yilda nashr etilgan “Death Without Weeping: The Violence of Everyday Life in Brazil” monografiyasi ushbu muammoni yanada kengaytiradi. Kitob Braziliyaning shimoli-

sharqidagi kambag‘al hududlarda yashovchi ayollar va bolalarning kundalik hayotini, oziq-ovqat tanqisligi, kasallik, chaqaloqlar o‘limi va ijtimoiy tengsizlik sharoitidagi yashash tajribasini antropologik jihatdan tahlil qiladi [3]. Scheper-Hughes bu tadqiqotida uch avlod ayollarining hayot tajribalarini kuzatib, onalik hissiyotlari va amaliyotlarini kundalik hayotdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit bilan bog‘laydi.

Shu jihatdan tadqiqotchining yondashuvida “onalik tajribasi” tushunchasi juda muhim metodologik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki onalik faqat tug‘ish faktidan iborat emas. U bolaning oziqlantirilishi, parvarishi, kasallik paytidagi qarorlar, mehrni ifodalash, bolaning yashab qolish imkoniyatini baholash, qarindoshlar bilan munosabatlar va jamiyat tomonidan onaga yuklatilgan kutishlar kabi ko‘plab kundalik amaliyotlardan tarkib topadi [2; 3].

Scheper-Hughesning tadqiqoti, ayniqsa, “tabiiy onalik” haqidagi universal tasavvurlarni antropologik jihatdan qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Masalan, zamonaviy G‘arb tibbiy va psixologik diskurslarida chaqaloq bilan kuchli emotsional bog‘lanish ko‘pincha “yaxshi onalik”ning muhim belgisi sifatida talqin qilinadi. Biroq Scheper-Hughes tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, onaning hissiy va amaliy munosabatlarini u yashayotgan jamiyatdagi o‘lim darajasi, qashshoqlik, oziq-ovqat tanqisligi va ijtimoiy xavfsizlik bilan birgalikda o‘rganish zarur [2; 3].

Bu yerda antropologik tahlilning asosiy masalasi “ona bolasini yaxshi ko‘radimi yoki yo‘qmi?” degan individual-psixologik savol emas. Aksincha, “muayyan jamiyat sharoitida onalik qanday yashaladi, qanday ma’nolantiriladi va qanday amaliyotlar orqali namoyon bo‘ladi?” degan savol markazga chiqadi. Ana shu o‘zgarish onalikni etnologik-antropologik tadqiqotning mustaqil obyekti sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Scheper-Hughesning yondashuvida yana bir muhim tushuncha — maternal thinking, ya’ni onalik tafakkuridir. Bu tushuncha onaning qarorlarini faqat biologik instinkt bilan izohlashdan voz kechib, ularni muayyan ijtimoiy tajriba va madaniy mantiq doirasida tushuntirishga imkon beradi. Shunday qilib, ona tomonidan amalga oshiriladigan parvarish yoki parvarishdagi ayrim cheklanishlar ham individual “mehrning yetishmasligi” sifatida emas, balki yashash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy strategiyalar kontekstida tahlil qilinadi [2].

Mazkur yondashuvning ilmiy qiymati shundaki, u “ideal onalik” va “real onalik tajribasi” o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Jamiyat onadan ma’lum xatti-harakatlarni kutishi mumkin, biroq real hayotda ayolning onalik tajribasi iqtisodiy imkoniyatlar, oilaviy munosabatlar, sog‘liq, qarindoshlik tizimi, mahalliy madaniyat va ijtimoiy tengsizlik kabi omillar ta’sirida shakllanadi. Demak, antropolog uchun onalikning normativ modeli emas, balki uning kundalik hayotda qanday amalga oshirilishi muhim tadqiqot obyektiga aylanadi.

Shu nuqtayi nazardan Scheper-Hughes tadqiqoti keyingi antropologik tadqiqotlar uchun muhim metodologik yo‘nalish yaratdi: onalikni biologik universal kategoriya sifatida emas, balki madaniyat, iqtisodiyot, qarindoshlik va kundalik amaliyotlar kesishmasida shakllanuvchi tajriba sifatida o‘rganish. Aynan mana shu yondashuv keyinchalik onalikni gender, reproduktiv siyosat, milliy identitet va ijtimoiy institutlar bilan bog‘liq holda o‘rganuvchi tadqiqotlarning rivojlanishiga zamin yaratdi [3; 5; 6].

Mazkur nazariy xulosa O‘zbekiston sharoitidagi onalik tajribasini o‘rganish uchun ham metodologik jihatdan muhimdir. Chunki mustaqillik davrida o‘zbek ayollarining onalik tajribasini faqat demografik ko‘rsatkichlar yoki oilaning tuzilishi orqali emas, balki an’anaviy qarashlar, qarindoshlik munosabatlari, mahalla, tibbiy xizmatlar, reproduktiv tanlovlar, oiladagi gender rollari va zamonaviy

onalik haqidagi tasavvurlar o‘zaro ta’siri orqali tahlil qilish mumkin. Shu jihatdan Scheper-Hughes tomonidan ishlab chiqilgan “onalik — ijtimoiy-madaniy sharoit mahsuli” degan antropologik yondashuv keyingi tadqiqot uchun muhim nazariy asos vazifasini bajaradi [2; 3].

1990-yillarga kelib onalikni antropologik va fanlararo tadqiq etishda muhim metodologik o‘zgarish yuz berdi. Tadqiqotchilar onalikni faqat biologik reproduksiya yoki ayolning oiladagi roli bilan izohlash o‘rniga, uning ijtimoiy jihatdan tashkil etilishi, madaniy jihatdan ma’nolantirilishi va kundalik amaliyotlarda bajarilishiga e’tibor qarata boshladilar. Shu yo‘nalishdagi muhim ishlardan biri Evelyn Nakano Glenn, Grace Chang va Linda Rennie Forcey muharrirligida 1994-yilda nashr etilgan *Mothering: Ideology, Experience, and Agency* to‘plamidir [4].

Mazkur asar onalik masalasini birgina nazariy nuqtayi nazardan emas, balki etnik, irqiy, sinfiy, huquqiy, siyosiy va madaniy kontekstlarda tahlil qiluvchi tadqiqotlarni birlashtiradi. Asarning asosiy savollaridan biri “mothering” — ya’ni onalikni amalga oshirish, bolaga g‘amxo‘rlik qilish va parvarish faoliyati — aslida kim tomonidan, qanday sharoitda va qanday ijtimoiy munosabatlar doirasida bajarilishini aniqlashdir [4]. Kitob turli fanlar, jumladan antropologiya, tarix, sotsiologiya, etnik tadqiqotlar va madaniyatshunoslik yondashuvlarini birlashtiradi.

Ushbu yondashuvning muhim jihati — “motherhood” va “mothering” tushunchalarini farqlashdir. Motherhood ko‘proq onalikning ijtimoiy maqomi, institutsional va normativ jihatlarini ifodalasa, mothering bolaning kundalik parvarishi, tarbiyasi, oziqlantirilishi, hissiy qo‘llab-quvvatlanishi va boshqa amaliy faoliyatlarni anglatadi. Shu sababli onalikni o‘rganishda “ona kim?” degan savol bilan cheklanib qolmasdan, “onalik amaliyotlarini kim bajaradi?”, “ular qanday taqsimlanadi?” va “bu faoliyatning ijtimoiy qiymati qanday belgilanadi?” kabi savollar ham qo‘yiladi [4].

Bu metodologik o‘zgarish onalikni biologiya bilan tenglashtirishga asoslangan an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga olib keladi. Glenn va uning hamkasblari jamlagan tadqiqotlarda onalikning ma’nosi turli irqiy, etnik va sinfiy guruhlarda bir xil emasligi ko‘rsatiladi. Demak, “yaxshi ona”, “mas’uliyatli ona”, “ideal oila” yoki “to‘g‘ri bola tarbiyasi” kabi tushunchalar universal va o‘zgarmas kategoriyalar sifatida qabul qilinmasligi kerak [4]. Ularning mazmuni muayyan jamiyatdagi tarixiy sharoit, ijtimoiy tabaqalanish, gender munosabatlari va davlat siyosati bilan shakllanadi.

Glenn, Chang va Forcey tahriridagi to‘plamning yana bir muhim jihati — onalik amaliyotlarini davlat va boshqa ijtimoiy institutlardan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatishidir. Onalar, davlat, ijtimoiy islohotchilar, ish beruvchilar va bolalar parvarishi bo‘yicha mutaxassislar o‘rtasidagi munosabatlar onalikning qanday tushunilishi va amalga oshirilishiga ta’sir ko‘rsatadi [4].

Bu holat onalikni mikro va makro darajalar kesishmasida o‘rganishni talab qiladi. Mikro darajada ayolning kundalik tajribasi — homiladorlik, tug‘ruq, bola parvarishi, ovqatlantirish, tarbiya, uy mehnati va qarindoshlar bilan munosabatlar — tahlil qilinadi. Makro darajada esa davlatning demografik siyosati, tibbiy tizim, mehnat bozori, ta’lim, gender me’yorlari va oilaga oid ijtimoiy siyosat ko‘rib chiqiladi. Onalik tajribasi aynan shu ikki darajaning o‘zaro ta’sirida shakllanadi [4].

1994-yildagi ushbu yondashuvni 1995-yilda Faye D. Ginsburg va Rayna Rapp tomonidan tahrirlangan *Conceiving the New World Order: The Global Politics of Reproduction* asari yanada kengaytirdi [5]. Ushbu to‘plam reproduksiyani individual oilaviy masala sifatida emas, balki hokimiyat, davlat siyosati, iqtisodiyot, texnologiya, milliy identitet va global jarayonlar bilan bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida markazga qo‘yadi.

Ginsburg va Rappning asosiy metodologik taklifi reproduksiyani ijtimoiy nazariyaning markaziy obyektlaridan biri sifatida ko‘rishdir. Ularning to‘plamidagi tadqiqotlar AQShdagi reproduktiv siyosatdan tortib, Inuit jamoalarining tug‘ruq huquqlari, Xitoy va Ruminiyadagi tug‘ilish nazorati siyosati, xalqaro farzandlikka olish, migratsiya, yordamchi reproduktiv texnologiyalar va qarindoshlik munosabatlarigacha bo‘lgan turli holatlarni qamrab oladi [5].

Shunday qilib, 1990-yillar antropologiyasida onalikni tushuntirish doirasi sezilarli darajada kengaydi: ayol → oila → jamiyat modeli o‘rniga ayol → oila → qarindoshlik → davlat → iqtisodiyot → tibbiyot → global siyosat kabi ko‘p darajali tahlil shakllandi. Bu esa onalik tajribasini faqat xususiy hayot hodisasi emas, balki jamiyatning reproduktiv va madaniy tuzilishini aks ettiruvchi muhim antropologik indikator sifatida ko‘rish imkonini berdi [4; 5].

Mazkur metodologik qarash O‘zbekiston mustaqilligi davrida onalik tajribasini tadqiq etishda ham muhim nazariy asos bo‘la oladi. Bunda tadqiqotning markaziy savoli “o‘zbek ayoli an’anaviy onalikdan zamonaviy onalikka o‘tdimi?” tarzida qo‘yilmasligi kerak. Bunday savol oldindan “an’ana” va “zamonaviylik”ni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Antropologik jihatdan ancha mahsuldor savol esa quyidagicha shakllantiriladi: mustaqillik davrida Toshkent viloyatidagi ayollar onalik haqidagi mavjud madaniy me’yorlarni qanday qabul qildilar, qayta talqin qildilar va kundalik amaliyotlarida qanday o‘zgartirdilar?

Shu asosda onalik tajribasining transformatsiyasini uch o‘zaro bog‘liq qatlamda o‘rganish mumkin: 1) onalik haqidagi normativ tasavvurlar; 2) real kundalik onalik amaliyotlari; 3) ayollarning ushbu me’yorlar va amaliyotlar oldidagi agentligi. Aynan shu uchlik onalik transformatsiyasini oddiy demografik yoki sotsiologik o‘zgarishlardan farqlab, uni antropologik-etnologik muammo sifatida shakllantirish imkonini beradi [4; 5].

Onalik tajribasini faqat oila va kundalik hayot doirasida o‘rganish uning to‘liq antropologik mazmunini ochib bermaydi. 1990-yillardan boshlab antropologiyada reproduksiya masalasi davlat, siyosat, iqtisodiyot, tibbiyot, qarindoshlik va milliy identitet bilan bog‘liq holda kengroq tahlil qilina boshladi. Faye D. Ginsburg va Rayna Rapp tomonidan tahrirlangan *Conceiving the New World Order: The Global Politics of Reproduction* ana shu metodologik burilishning muhim namunalaridan biridir [5].

Mazkur yondashuvda reproduktiv hayot shaxsiy yoki biologik jarayon sifatida emas, balki turli ijtimoiy institutlar manfaatlari kesishadigan makon sifatida qaraladi. Tug‘ish, farzand ko‘rish, kontratsepsiya, homiladorlikni nazorat qilish, tibbiy texnologiyalar, farzandlikka olish va qarindoshlik shakllari davlat siyosati va ijtimoiy tengsizlik bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi [5]. Shu sababli onalik tajribasi ham “xususiy hayot” chegarasidan chiqib, jamiyatning reproduktiv tartibini aks ettiruvchi antropologik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Ginsburg va Rapp yondashuvining muhim jihati shundaki, reproduktiv qarorlar hech qachon faqat individual tanlov sifatida shakllanmaydi. Ayolning qarori uning iqtisodiy imkoniyatlari, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, huquqiy maqomi, qarindoshlik tizimi va davlat siyosati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [5]. Shunday qilib, onalik tajribasini o‘rganishda “tanlov”ning o‘zi qanday sharoitda amalga oshirilayotganini aniqlash muhim metodologik masalaga aylanadi.

2011-yilda Samira Kawash “New Directions in Motherhood Studies” maqolasida so‘nggi o‘n yilliklarda onalik va mothering bo‘yicha shakllangan ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirdi [6]. Tadqiqotchi ushbu adabiyotlarning keng va fanlararo xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, u mazkur

yo‘nalishning muhim umumiy xususiyatini — onalik tajribasini yagona, o‘zgarmas va barcha ayollarga bir xil xos bo‘lgan hodisa sifatida tushuntirishdan voz kechishni — ajratib ko‘rsatadi.

Kawash uchun muhim masala onalik tajribasining xususiyligi va konkretligidir. Ya’ni, “ona bo‘lish” tushunchasi barcha jamiyatlarda mavjud bo‘lishi mumkin, biroq uning mazmuni tarixiy davr, madaniyat, ijtimoiy guruh va individual hayot sharoitlariga qarab farqlanadi [6]. Shu sababli antropologik tadqiqot “umuman onalik” haqida umumiy xulosa chiqarishdan ko‘ra, muayyan jamiyatda onalikning qanday shakllanayotganini aniqlashga intiladi.

Bu yerda onalik tajribasining differensialligi asosiy metodologik prinsipga aylanadi. Bir hududdagi barcha ayollar ham onalikni bir xil boshdan kechirmaydi. Yosh, avlod, nikoh holati, ta’lim, iqtisodiy imkoniyat, yashash hududi, qarindoshlik munosabatlari va migratsiya tajribasi onalik amaliyotlarini farqlashi mumkin. Demak, “o‘zbek onasi”, “qishloq onasi” yoki “zamonaviy ona” kabi umumlashtiruvchi kategoriyalarni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash zarur [6].

Kawashning yana bir muhim xulosasi shundan iboratki, onalik feminist va gender tadqiqotlarida ham ba’zan ikkinchi darajali mavzu sifatida qolib ketgan. U onalikni mustaqil tadqiqot obyekti sifatida qayta markazlashtirish zarurligini ta’kidlaydi [6].

Shu bilan birga, 2010-yillarga kelib onalik tadqiqotlarida muhim savol o‘zgardi: tadqiqotchilar endi faqat “onalik qanday bo‘lishi kerak?” degan normativ savolni emas, balki “ayollar real hayotda onalikni qanday boshdan kechiradi va qanday amalga oshiradi?” degan empirik savolni ko‘proq qo‘ya boshladilar.

Bu o‘zgarish tarix, antropologiya va etnologiya uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki real onalik tajribasini o‘rganish uchun og‘zaki tarix, chuqur intervyu, etnografik kuzatuv, avlodlararo taqqoslash va kundalik hayot materiallaridan foydalanish mumkin. Natijada onalik “katta tarix”ning chetda qolgan obyekti emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni kuzatish mumkin bo‘lgan mikro-tarixiy makonga aylanadi [6].

Onalikning postsovet jamiyatlaridagi o‘zgarishini tushunish uchun Sophie Roche tomonidan Tojikiston misolida olib borilgan tadqiqot alohida ahamiyatga ega. Roche “A Sound Family for a Healthy Nation: Motherhood in Tajik National Politics and Society” maqolasida 1991-yildan keyingi Tojikistonda onalik tushunchasining milliy siyosat va jamiyatdagi o‘zgarishini tahlil qiladi [7]. Tadqiqot *Nationalities Papers* jurnalining 44-jildi, 2-sonida 2016-yilda 207–224-betlarda nashr etilgan.

Roche tadqiqotining markaziy muammosi — mustaqillikdan keyin milliy identitetni shakllantirish jarayonida oila va onalikning yangi siyosiy-ma’naviy mazmun kasb etishidir [7]. Muallif Tojikistonda ayolning maqomi bir vaqtning o‘zida ikki xil diskurs orqali qurilganini ko‘rsatadi: bir tomondan, sovet davri ayollarni “orqada qolgan an’analar”dan ozod qilgan modernizatsiya davri sifatida talqin qilinadi; ikkinchi tomondan esa mustaqillikdan keyin ayrim an’analar qayta tiklanib, ayol “millatning onasi” va an’anani davom ettiruvchi asosiy subyekt sifatida tasavvur qilinadi [7].

XULOSA. Onalik tajribasini antropologik va etnologik jihatdan o‘rganish uning faqat biologik jarayon emas, balki jamiyat, madaniyat, qarindoshlik, gender me’yorlari va kundalik amaliyotlar bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa ekanini ko‘rsatadi. Xorijiy tadqiqotlar tahlili onalik haqidagi qarashlar tarixiy davr, hudud va ijtimoiy sharoitga qarab o‘zgarib borishini tasdiqlaydi.

Mustaqillik davrida Toshkent viloyatida ham an’anaviy onalik qarashlari zamonaviy tibbiy bilimlar, ta’lim, mehnat munosabatlari va raqamli axborot muhiti ta’sirida yangi mazmun kasb etmoqda. Shu

sababli onalik tajribasining transformatsiyasini avlodlararo munosabatlar, kundalik amaliyotlar va ayollarning individual tanlovlari bilan bog‘liq holda etnografik tadqiq etish muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR

1. Oakley, A. Becoming a Mother. London: Martin Robertson, 1979.
2. Scheper-Hughes, N. “Culture, Scarcity, and Maternal Thinking: Maternal Detachment and Infant Survival in a Brazilian Shantytown.” Ethos, 1985, Vol. 13, No. 4, pp. 291–317.
3. Scheper-Hughes, N. Death Without Weeping: The Violence of Everyday Life in Brazil. Berkeley: University of California Press, 1992.
4. Glenn, E. N., Chang, G., Forcey, L. R. (eds.). Mothering: Ideology, Experience, and Agency. New York: Routledge, 1994.
5. Ginsburg, F. D., Rapp, R. (eds.). Conceiving the New World Order: The Global Politics of Reproduction. Berkeley: University of California Press, 1995.
6. Kawash, S. “New Directions in Motherhood Studies.” Signs: Journal of Women in Culture and Society, 2011, Vol. 36, No. 4, pp. 969–1003. DOI: 10.1086/658637.
7. Roche, S. “A Sound Family for a Healthy Nation: Motherhood in Tajik National Politics and Society.” Nationalities Papers, 2016, Vol. 44, No. 2, pp. 207–224. DOI: 10.1080/00905992.2015.1087486.
8. Griffin, E. “The Emotions of Motherhood: Love, Culture, and Poverty in Victorian Britain.” The American Historical Review, 2018, Vol. 123, No. 1, pp. 60–85.
9. Demintseva, E. B. “Motherhood in Migration: Strategies of Migrant Women from Central Asia.” Etnograficheskoe Obozrenie, 2023, No. 1, pp. 102–122. DOI: 10.31857/S0869541523010074.
10. Muggeridge, A., Davidson, R. “Revisiting the Politics of Motherhood in Modern British History.” The Historical Journal, 2026, pp. 1–18. DOI: 10.1017/S0018246X26101630.